Схемада (1а-расм) осциллографнинг биринчи А киришига диоддаги кучланиш куйилган бўлиб, бу кучланиш гармоник кучланиш генераторининг чиқиш кучланишига тенг ( $U=2V$ ,  $f=60\text{Гц}$ ). Иккинчи (В) киришга кучланиш куйилган, қаршилиқ  $R_0=1\text{ Ом}$ . У диоднинг токига пропорционал ( $1\text{ мВ}=1\text{ мА}$ ). Сичқончанинг чап клавишасини осциллографдаги сифилган тасвир булиб, икки мартта босилади, икки канали осциллографнинг олдинги панели очилади (1б-расм). Монитор ишчи майдонининг юқоридаги унг бурчагида жойлашган белги буйлаб сичқонча босилади, ҳисоблаш жараёни (моделлаш) бошланади ва осциллограф экранида диод ВАХ ининг тасвири (2-расм) пайдо булади.




2-расм. 1N3064 диод ВАХ ининг тасвири булган осциллографнинг олдинги панели.

3-5 дакика утганидан сунг, сичқончанинг клавишаси буйича босиб моделлаш жараёнини тухтатиш мумкин. Горизонтал буйича масштаб (1 В/бул) ва вертикал буйича масштаб (200 мА/бул) эканлигини билган холда осциллограф экранида диоднинг ВАХ ини улчаб олиш мумкин. Диоднинг ВАХ ини анқироқ улчаш учун осциллографнинг олдинги панелидаги клавишаси буйича сичқончани босиш керак. Натижада осциллографнинг олдинги панели максимал очилади. (2-расм). Сичқонча ёрдамида чап (кизил) ва унг (кук) вертикал маркер чизиқчаларни силжитиб, VA1, VB2, VA2, VB2, VA2-VA1, VB2-VB1 туйнукчалардан ток ҳамда кучланиш мос қийматлари ҳисобларини ёзиб олиш йули билан диоднинг ВАХ ини катта аниқликда улчаш мумкин. Осциллограф олдинги панелини уртача очишга кайтариш учун (2-расм) сичқончани осциллографнинг олдинги панелида жойлашган клавишаси **Reduce** буйлаб босиш етарли бўлади.

Стабилитроннинг ВАХ ини текшириш учун Lb2b.ewb схемавий файлни юклаш лозим, натижада мониторинг ишчи майдонида 3а-расмда тасвирланган стабилитрон

ВАХ ини текшириш схемаси пайдо булади. Бу схемада ЯУ ли диодни текшириш схемасидан (1а-рasm) фаркли равишда гармоник кучланиш  $U_1$  манбаига кетма-кет килиб кушимча узгармас кучланиш манбаи  $U_0=10,8$  В уланган булиб, бу манба манфий силжишни хосил килади.  $U_1$  ва  $U_0$  катталикларни танлаб олиб стабилитрон орқали туғри ва тескари оқаётган токларнинг амалда бир хил қийматларга эга булишига эришиш мумкин. Қушимча ўзгармас кучланиш манбаи  $U_0$  бўлмаса стабилитронга гармоник кучланиш  $U_1$  генератори томонидан жуда катта туғри кучланиш ( $U > U_{ст}$ ) куйилади ва катта ортиқча юкланиш кўзатилади.



3-рasm. Стабилитрон ВАХ ини текшириш схемаси (а), ( $U_{ст}=22,08$  В) 1N969В булган стабилитрон ВАХ ли осциллографнинг олдинги панели.

Стабилитрон ВАХ ини текшириш жараёнининг давоми ЯУ ли диоднинг ВАХ ини текшириш жараёнидан фарқ қилмайди.

### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. А.Г. Морозов. Электротехника, электроника и импульсная техника. – М.: Высшая школа, 1987.
2. А.Г. Алексенко, И.И. Шагурин. Микросхемотехника. – М.: Радио и связь, 1990.
3. Д.В. Игумнов, Г.В. Королев, И.С. Громов. Основы микроэлектроники. – М.: Высшая школа, 1991.
4. Ю.Ф. Опадчий, О.П. Глудкин, А.И. Гуров. Аналоговая и цифровая электроника. – М.: Горячая линия – Телеком, 2003.

**Валиев Шерзодбек Икромитдинович, Эргашев Озодбек Шавкатович,  
Тўраев Ҳайдарали Акбарович  
Андижон машинасозлик институти  
(Андижон, Ўзбекистон)**

## **СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИНГ ЖАМИЯТГА ТАЪСИРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ЖИҲАТЛАРИ**

**Аннотация.** Сунъий интеллект мавзуси инсоният келажаги шароитида энг долзарб мавзулардан биридир. Унинг мавжудлиги инсоннинг тур сифатида сақланиб қолишига катта хавф туғдиради. Ушбу мақоланинг долзарблиги шундаки, инсон ҳаёти хавфсизлиги сунъий интеллект тизими, унинг ажралмас қисми нано-саноат, робототехника ва жамиятни ахборотлаштириш стратегияси нуқтаи назаридан кўриб чиқилади.

**Калит сўзлар:** сунъий интеллект, хавфсизлик, робототехника, наносаноат, киберфазо, кибермакон.

*Valiev Sherzodbek Ikromitdinovich, Ergashev Ozodbek Shavkatovich,  
Turaev Haydarali Akbarovich  
Andijan Machine Building Institute  
(Andijan, Uzbekistan)*

## **PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON SOCIETY**

**Abstract.** The topic of artificial intelligence is one of the most relevant topics in the conditions of the future of humanity. Its existence poses a great danger to the survival of humans as a species. The relevance of this article lies in the fact that the safety of human life is an artificial intelligence system, an integral part of which is considered from the point of view of the nanoindustry, robotics and information strategies of the community.

**Key words:** artificial intelligence, security, robotics, nanosanitary, cyberspace.

XXI асрга келиб илм фан шу даражада ривожланиб кетдики, ҳаётимизни ҳеч бир кунини фан ютуқлари ва техникаларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Айниқса ахборотлашган жамият ва сунъий интеллект каби тушунчалар ҳаётимизнинг бир бўлагига айланиб қолганлиги ҳозирги кунда ҳеч кимга сир эмас. Мамлакатмиз мустақилликка эришган илк кунлардан бошлаб таълимни барча соҳаларини тубдан ислоҳ қилиш йўлидан борилди. Бу эса келажакда етук кадрлар заҳирасини давлатнинг асосий ҳал қилувчи кучи сифатида майдонга чиқиши дунё ҳамжамиятида Ўзбекистоннинг ўз ўрнига эга давлат эканлигини белгилаб беради.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев таъкидлаганларидек, “Бугун биз давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларини тубдан янгилашга қаратилган инновацион ривожланиш йўлига ўтмоқдамиз. Бу бежиз эмас, албатта. Чунки замон шиддат билан ривожланиб бораётган ҳозирги даврда ким ютади? Янги фикр, янги ғояга, инновацияга таянган давлат ютади” [1, Б. 5]. Ҳозирги кунда инновациялар соҳасидаги

жараёнлар бевосита сунъий интеллект масаласига фалсафий нуқтаи назардан ёндашиш, унинг ривожланиш қонуниятларини тадқиқ этиш, шахс ва жамият интеллектуал салоҳиятини шакллантиришдаги энг асосий вазифалардан биридир. Айниқса, бу борада олиб борилаётган ишлар бевосита ёшларнинг таълим тарбияси билан узвий боғлиқдир.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг ўз маърузаларида таълим- тарбия масаласига алоҳида тўхталиб, “Дунё шиддат билан ўзгариб, барқарорлик ва халқларнинг мустақкам ривожланишига раҳна соладиган турли янги таҳдид ва хавфлар пайдо бўлаётган бугунги кунда маънавият ва маърифатга, ахлоқий тарбия, ёшларнинг билим олиш, камолга етишга интилишига эътибор қаратиш ҳар қачонгидан ҳам муҳимдир. Айнан таълим ва маърифат башарият фаровонлигининг асосий омилларидан ҳисобланади, инсонларни эзгуликка даъват этади, саховатли, сабр-қаноатли бўлишга ундайди” [2. Б. 3] деб таъкидлайди. Ҳеч шубҳасиз ушбу сўзлар бугунги кунга ҳаётимизнинг барча жабҳаларида ўз аксини топмоқда. Ҳаммамизга яхши маълумки, инсоннинг тарбияси унинг ахлоқий қарашлари қадим замонлардан бери ривожланиб ўзининг юксак чўққисига эришиб келмоқда. Шу билан биргаликда ахборотлашган жамиятда биз кўпинча учратаётган сунъий интеллект тушунчаси ва ахлоқий муносабатлар бир-бири билан узвий боғлиқ.

Интеллект деганда индивиднинг сезги, идрок, хотира, тасаввур, тафаккур, хаёл, диққат каби бутун билиш(ижодкорлик) қобилиятлари тизими тушунилади. Умумий ақлий қобилиятни ифодаловчи интеллект тушунчаси инсоннинг янги шарт-шароитга мослашуви билан боғлиқ хулқ-атвор фазилатларини умумлаштиришда ҳам қўлланилади [3]. Сунъий интеллект эса юқоридаги каби тузилмаларни техника воситаларида намоён қилишга интилади.

1956 йилда америкалик тадқиқотчи Джордж Маккарти фанга иккита маънога эга бўлган “сунъий интеллект” атамасини олиб киради. Биринчидан, сунъий интеллект остида, инсоннинг интеллектуал фаолияти билан қиёсланиши мумкин бўлган интеллектуал фаолиятни амалга ошириш имкониятига эга бўлган дастурий ва аппарат воситаларни яратиш назарияси тушунилади. Иккинчиси эса сунъий интеллект воситаларининг “тушуниши”, яъни инсоннинг табиий тилини қабул қила олиш, жумладан онгли равишда суҳбат кура олиш қобилияти назарда тутилган [4, Б. 350].

Бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири сунъий интеллект тизимларини инсон ҳаётига жорий этиш ҳисобланади. Ф.Ҳақимовнинг фикрига кўра, наноиндустрия соҳаларининг кенг кўламли ривожланиши инсоннинг моҳиятини “бир вақтнинг ўзиде турли оламларда яшовчи: нафақат физикавий ва биологик жараёнлар дунёсида, балки маданият оламида ҳам яшайдиган биосоциал мавжудот сифатида, нафақат табиий дунёда, балки сунъий дунёда ҳам алмаштиради” [5].

Сунъий интеллект тизимларининг имкониятлари ҳақиқатан ҳам ҳайратланарли. Бундай тизимлар одамни тўлиқ алмаштиришга қодир, масалан, ҳаво, куруқлик, сув транспортини бошқариш, айрим тиббий хизматларни тақдим этиш, таълим хизматлари кўрсатиш, ишлаб чиқариш ва ҳ.к.

Аммо, одамнинг сунъий интеллект билан бундай ўзаро муносабати ҳам шахс, ҳам жамият, умуман давлат хавфсизлигига таҳдид солиши мумкин. Инсоният хавфсизлигини таъминлаш хавфнинг ижтимоий манбаларини локализация қилиш жараёнларида, яъни



“онгли ёки онгсиз равишда бузғунчи йўналтирилган ижтимоий институтлар, тузилмалар, субъектлар фаолияти” да аниқ намоён бўлади [6. Б. 135-136].

Сунъий интеллект ва ижтимоий таъминот ўртасидаги муносабатлар муаммоларини ўрганишда интеллектуал муаммоларни ҳал қилишга қодир бўлган компьютер тизимларини лойиҳалаш учун замонавий технологик базани (воситалар, усуллар) яратишда юзага келадиган қийинчиликлар билан боғлиқ масалаларга алоҳида эътибор қаратилади. Масалан, робототехника соҳасида; инсон мияси имкониятларини ўзгартириш, “онгни қайта ишга тушириш”, янги фикрлаш механизмлари, суперкомпьютерга сингиб кетган генетик, ақлий ва шахсий хусусиятларини ўзгартириш учун янада самарали хавфсиз муҳитни яратиш қабилар.

Сунъий интеллект тизими мантиқий фикрлаш, ҳаракатларини назорат қилиш ва бошқариш, ҳис-туйғуларини ифодалашга қодир, ўзгарувчан атроф муҳит шароитларига қараб қарорларини асослаб беришга ва тузатишга қодир бўлган инсон фаолиятининг бирон бир натижаси сифатида тушунилади.

Сунъий интеллект - бу техноген цивилизация ютуқларининг юқори натижаси, ўзаро боғланишнинг мураккаб тизими (глобал қидирув тизимлари) ва кенг қамровли ахборот тизимларини яратиш учун асосдир [7. Б. 229].

Қисқа вақт ичида компьютер технологиялари, нанобиотехнологиялардан фаол фойдаланиш инсон ҳатти-ҳаракатларини қайта форматлаш, ижтимоий муносабатларни ўзгартириш ва инсоннинг экзистенциал хусусиятларига таъсир кўрсатиши мумкин. Бинобарин, сунъий интеллект тизимлари замонавий робототехника соҳасида эришилган ютуқларни ҳисобга олган ҳолда тизим фойдаланувчиси табиий тилда бир вақтда ўрганиш ва ўзаро таъсир ўтказиш имконияти билан нано саноатининг имкониятларини тўлиқ рўёбга чиқаради.

Визуал равишда олинган маълумотларни семантик қайта ишлаш учун базани яратиш масаласи бугунги кунда ҳам долзарб бўлиб, бу сунъий интеллектга график объектларни идрок этиш, тушуниш ва очиш имконини беради.

Замонавий жамиятда кибер маконни билиш имкониятларини кенгайтирадиган концептуал конструкцияларни амалга оширишга объектив эҳтиёж мавжуд, чунки “ахборот-коммуникация технологиялари (телевизор, Интернет орқали) ёрдамида инсон онгига таъсир ўтказиш ва ҳатто уни дастурлаш мумкин. Умуман олганда, бугунги кунда одамзод ҳақидаги кўплаб илмлар тобора кўпроқ инсонни бошқариш, унинг танаси ва руҳиятини лойиҳалаш воситаларининг таъминловчисига айланиб бормоқда” [8. Б. 4].

Дарҳақиқат, инсоннинг шахсиятини шакллантирувчи ахборот таълими стратегиясининг умумий мақсади, шакли ва мазмуни замонавий шароитларга нисбатан сезиларли ўзгаришларга ва оптималлаштиришга учрайди. Бундай вазиятда биз ҳокимиятнинг турғунлигини, хавфсизлик соҳасига таъсир қилишнинг баъзи масалаларида лаёқатсизликни, янги ҳодиса - неотерроризмга нисбатан интеллектуал ресурслардан фойдаланган ҳолда ҳар томонлама амалга оширилган тажовузга оид жамоатчилик билан алоқаларни кузатишимиз мумкин.

Фуқароларнинг миллий идентификациясидаги кенг кўламли ўзгаришларни неотерроризм, шу ҳудудда кўп асрлар давомида яшаган одамларнинг бирлигини

бузганлиги, қаттиқ мафқуравий қарама-қаршилиқ ва ҳарбий можаро учун шароит яратганлиги билан ҳам боғлаш мумкин.

Шу нуқтаи назардан, келажакда инсонда ҳозирги кунгача инсон ҳаётини мураккаблаштирган баъзи бир фазилатлар етишмайди: у ҳиссий эмас, оқилона бўлади, бир қатор анъанавий қадрият муносабатлари шунчаки йўқ бўлиб кетади.

Келажакда у ўлмас бўлиши мумкин ва унинг онги биологик ташувчидан (бу инсон танаси) рақамлига ўтади. Албатта, замонавий ахборот технологиялари қадриятлар, стереотиплар, хулқ-атвор шакллари, шахслар, ижтимоий гуруҳлари, сиёсий институтлар ва давлат идоралари ўртасидаги муносабатлар моделларининг ўзгаришига ёрдам беради. Шу сабабли, инсон ҳаётининг фаолиятининг турли соҳаларида, шу жумладан, кибермаконда иқтисодиёт, сиёсий ҳаёт, маданият, техносфера, ҳарбий ишларнинг ривожлантириш, таъминлаш ва фойдаланишда сунъий интеллект тизимларининг таъсирдан, уларнинг потенциалидан ҳимоя қилиши таъминлаш муҳим аҳамиятга эга.

Кибермакон жуда тез ривожланаётган соҳадир ва у ҳали ҳам яхши тушунилмаган (асосан унинг билимлари табиий ва техник билимларни, шунингдек, гуманитар ва ижтимоий фанларни талаб қилиши билан боғлиқ). Бинобарин, кибермакон эволюцияси жараёнида ҳақиқатни ўзгартирадиган, шу билан шахснинг салоҳиятини, қобилиятларини ва умуман ижтимоий муносабатларни ўзгартирадиган ҳақиқатнинг баъзи хусусиятларини ажратиш кўрсатиш мумкин.

Замонавий ахборот жамиятининг хавфсизлик соҳасининг шаклланиши ва ривожланиши жараёни унинг ривожланиш тарихи, коммуникация тузилмаси, геосиёсатдаги ўзгаришлар билан тавсифланиши мумкин, бу эса кибермакон ва неотерроризм билан боғлиқ хавф ва таҳдидларнинг пайдо бўлишига олиб келади. Ахборот жамияти ривожланиш суръатларининг ўсиб бориши тезкор ўзгаришлардан, инсон ҳаётининг деярли барча соҳаларидаги тизимли инқирозлардан иборат бўлиб, киберхудуддаги ахборот оқимларининг глобаллашуви нафақат инсоннинг ўзига хос таркибий қисмидир.

Шунинг учун биз қуйидаги хулосага келишимиз мумкин: замонавий одамнинг билими, унинг ақл-идроки цивилизация эволюциясининг ижобий динамикасини таъминлаши ва экотизимни, шу жумладан инсониятни бузмаслиги керак.

Маълумки, инсон барча тирик мавжудотлардан фарқ қилади, чунки у ижтимоий маконни билиши, нутқи, онги, ақл-идрокига эга, билимларни тўплаш, атрофдаги дунёга таъсир ўтказиш ва яратишга қодир. Аммо инсон моҳиятидаги доимий узлуксиз ўзгаришларни ёдда тутиш керак, ва унинг объектив ҳақиқати “диний таълимотлар, халқларнинг кўчиши, ягона ахборот маконининг шаклланиши, эркин муомаласи билан яхлитлик кўринишида мустаҳкамланади”. Инсоният илм-фанни қамраб олган ҳолда глобал миқёсдаги фаолиятни уйғунлаштиришга интилади [9. Б. 105].

Хулоса қилиб айтганда, сунъий интеллект тизимлари замонавий одамни техноген шахсга тўлиқ айлантирадиган силлиқ, кенг кўламли, глобал ахборот макроэволюциясини назарда тутаяди, бу эса кибернетик моделлаштириш, нейродастурлаш, нанотизимларни компьютер моделлаштиришга олиб келади. Шу нуқтаи назардан, компьютер технологияларини амалиётга тадбиқ этиш, нанобиотехнологиялардан фойдаланиш, кибермаконни глобал фаоллашуви нафақат қадриятларга, балки хулқ-атворга, алоқа

шаклига, инсоннинг дунёқарашига ҳам таъсир қилади. Бу инсон мавжудлигининг моҳиятини ўзгартиради ва таъсир қилади. Инсониятнинг наносаноат, биоинжиниринг, биоинформатика ва робототехника соҳаларидаги юқори ютуқлари туфайли бугунги дунё тез ўзгармоқда.

#### **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:**

1. Мирзиёев Ш.М. 2017 йил Олий Мажлисга мурожаатномаси.
2. Мирзиёев Ш.М. “Ислоҳ ҳамкорлик ташкилоти Ташқи ишлар вазирлари кенгашининг 43-сессиясидаги нутқи”. Халқ сўзи 2016 йил 19 октябрь.
3. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/intellekt-uz/>
4. Гулямов С.С., Аюпов Р.Ҳ.. Рақамли иқтисодиёт ва электрон тижорат асослари. Т.: ТМИ, “Иқтисод-Молия” нашриёти, 2020, 510 бет.
5. <https://strategy.uz/index.php?news=41198>
6. Рассел, Норвиг: Искусственный интеллект. Современный подход, Вильямс, 2019 г. С. 135-136.
7. Фалсафа асослари. (Тузувчи ва масъул муҳаррир: Қ. Назаров).- Т., «Ўзбекистон» нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2005. - 384 б.
8. Нильсон Н. Искусственный интеллект. Методы поиска решений. М., 1973. С. 236
9. Эндрю А. Искусственный интеллект / А.Эндрю; пер. с англ. В.Л.Стефанюка. - М.: Мир, 1985. - 265 с.

**Кувардин Максим Вячеславович**  
**Магистрант 2 курса,**  
**Коккоз Махаббат Мейрамовна**  
**к.п.н., доцент кафедры ИТБ,**  
**Яворский Виктор Владимирович**  
**д.т.н., профессор кафедры ИТБ**  
**Карагандинский технический университет**  
**(Караганда, Казахстан)**

## **АВТОМАТИЧЕСКАЯ ГЕНЕРАЦИЯ КОДА НА ОСНОВЕ ДОКУМЕНТАЦИИ SWAGGER**

**Аннотация.** В статье описывается получение и парсинг Swagger документации, а также генерация на ее основе готовых к использованию PHP-классов.

**Ключевые слова:** REST, Swagger, PHP, генерация кода.

### Введение

В эпоху бурного развития сети Интернет растет количество доступных в ней систем. Для их взаимодействия друг с другом успешно используется протокол передачи гипертекста – HTTP (HyperText Transfer Protocol). Он отлично подходит для отправки и получения данных, однако одного его все еще недостаточно для эффективной и согласованной работы компонентов сети. Для достижения этих целей был разработан специальный архитектурный стиль взаимодействия REST (Representational State Transfer). Web-службы, разработанные с учетом REST, соответственно, называются RESTful системами.

Стиль REST накладывает ограничения в сфере взаимодействия клиента и сервера. Эти ограничения учитываются разработчиками серверных и клиентских систем и в дальнейшем приводят к максимальной согласованности данных двух типов систем, а также к повышению их производительности.

Для описания RESTful API (Application Programming Interface) с помощью JSON (JavaScript Object Notation) был разработан язык Swagger. Он используется для проектирования, разработки и описания веб-сервисов в архитектурном стиле REST. Данный инструмент упрощает налаживание эффективного взаимодействия между сервером и клиентом.

### Обработка документации Swagger

Одним из преимуществ Swagger является получение полной документации в строгом стиле. Документация генерируется в JSON-формате и содержит следующие основные поля (рис. 1):

1. swagger – версия Swagger;
2. info – информация о текущем RESTful API;
3. host – наименование хоста;
4. basePath – базовый путь, по которому расположены методы API;
5. schemes – доступные схемы (протоколы);
6. paths – пути, список доступных методов API;

## 7. definitions – дефиниции, список структур данных или классов.

```
1  swagger: "2.0"  
2  info:   
12 host: "petstore.swagger.io"  
13 basePath: "/v2"  
14 tags:  
15 - name: "pet"   
20 - name: "store"   
22 - name: "user"   
27 schemes:  
28 - "https"  
29 - "http"  
30 paths:   
567 securityDefinitions:   
579 definitions:   
698 externalDocs: 
```

**Рисунок 1. Структура документации, сгенерированной Swagger версии**

Особое внимание необходимо уделить спискам дефиниций и путей. Данные оттуда будут принимать участие в автоматической генерации кода.

Рассмотрим структуру элемента документации из списка дефиниций. На рисунке 2 изображен пример такого элемента.

```
580 Order:  
581   type: "object"  
582   properties:  
583     id:  
584       type: "integer"  
585       format: "int64"  
586     petId:  
587       type: "integer"  
588       format: "int64"
```

**Рисунок 2. Описание класса Order. Пример структуры дефиниции.**

Остановимся на структуре дефиниций подробнее. Поле definitions представляет собой ассоциативный массив, где в качестве ключей элементов выступают наименование дефиниций, а в качестве значений – описание. Внутри описания имеется поле type со строковым содержимым. Оно описывает тип дефиниции и может содержать одно из следующих значений: integer (целочисленный), string (строковый), object (экземпляр класса), array (массив), boolean (логический) и number (число). Так как поле type представляет собой перечисляемый тип, создадим класс Types (рис. 5) и поместим возможные значения в константы для дальнейшего удобства. Также создадим метод для проверки вхождения текущего значения во множество возможных. Здесь (рис. 3) и далее программный код написан скриптом на языке программирования PHP версии 7.4.

```
1 <?php
2 declare(strict_types=1);
3 class Types
4 {
5     public const INTEGER = 'integer';
6     public const STRING = 'string';
7     public const OBJECT = 'object';
8     public const ARRAY = 'array';
9     public const BOOLEAN = 'boolean';
10    public const NUMBER = 'number';
11
12    public static function check(string $type): bool
13    {
14        return $type === self::INTEGER ||
15            $type === self::STRING ||
16            $type === self::OBJECT ||
17            $type === self::ARRAY ||
18            $type === self::BOOLEAN ||
19            $type === self::NUMBER;
20    }
21 }
```

**Рисунок 3. Класс Types.**

Поле `properties` описывает поля дефиниции и представлено в виде ассоциативного массива. Ключами массива являются наименования полей, а значениями – описания. Описание каждого поля содержит тип (поле `type`), а также, опционально, описание (`description`) и формат значений (`format`), который является полем типа перечисление. Для него также создадим отдельный класс `Formats` (рис. 4) для перечисления возможных значений и проверки текущего значения на вхождение в список возможных.

```
1 <?php
2 declare(strict_types=1);
3 namespace App\Damumed\ApiParser;
4 class Formats
5 {
6     public const INT64 = 'int64';
7     public const INT32 = 'int32';
8     public const DATE_TIME = 'date-time';
9     public const BYTE = 'byte';
10    public const FLOAT = 'float';
11    public const DOUBLE = 'double';
12
13    public static function check(string $format): bool
14    {
15        return $format === self::INT64 ||
16            $format === self::INT32 ||
17            $format === self::DATE_TIME ||
18            $format === self::BYTE ||
19            $format === self::FLOAT ||
20            $format === self::DOUBLE;
21    }
22 }
```

**Рисунок 4. Класс Formats.**

После разбора структуры описания дефиниций можно приступить к написанию соответствующего класса (рис. 5).

```
1 <?php
2 declare(strict_types=1);
3
4 use RuntimeException;
5
6 class Definition {
7     public string $name;
8     public string $name_normalized;
9     public ?string $is_list_of = null;
10    public ?string $description = null;
11    public string $type;
12    public array $properties = [];
13    public array $required = [];
14
15    public function __construct(string $name, array $data) {
16        $this->name = $name;
17        $this->description = $data['description'] ?? null;
18        $this->type = $data['type'];
19        $this->required = $data['required'] ?? null;
20
21        if (preg_match('~^ListModel\{([\^\}]+\)}$~ui', $this->name, $match)) {
22            $this->name_normalized = "ListOF{$match[1]}";
23            $this->is_list_of = $match[1];
24        } else {
25            $this->name_normalized = $this->name;
26        }
27
28        if (!Types::check($data['type'])) {
29            throw new RuntimeException("Unknown type: {$data['type']}");
30        }
31
32        foreach ($data['properties'] as $property_name => $property_data) {
33            $this->properties[$property_name] =
34                new DefinitionProperty($property_name, $property_data);
35        }
36    }
37 }
```

**Рисунок 5. Класс Definition.**

В составе класса имеются поля, содержащие основные данные. Конструктор класса принимает ассоциативный php-массив, полученный путем преобразования json-строки с помощью стандартной функции `json_encode()`.

Таким же образом опишем классы `DefinitionProperty` (поле дефиниции), `Path` (путь или метод RESTful API) (рис. 6), `PathParameter` (входной параметр метода), `Documentation` (документация) (рис. 7).

```

1  <?php
2  declare(strict_types=1);
3
4  use RuntimeException;
5
6  class Path {
7      public const METHOD_POST = 'post';
8      public const METHOD_GET = 'get';
9
10     public string $route;
11     public string $method;
12     public array $tags = [];
13     public ?string $summary = null;
14     public string $operation_id;
15     public array $consumes = [];
16     public array $produces = [];
17     public array $parameters = [];
18     public array $responses = [];
19
20     public function __construct(string $route, string $method, array $data) {
21         $this->route = $route;
22         $this->method = $method;
23         $this->tags = $data['tags'];
24         $this->summary = $data['summary'] ?? null;
25         $this->operation_id = $data['operationId'];
26         $this->consumes = $data['consumes'];
27         $this->produces = $data['produces'];
28
29         if (isset($data['parameters'])) {
30             foreach ($data['parameters'] as $parameter) {
31                 $this->parameters[] = new PathParameter($parameter);
32             }
33         }
34
35         foreach ($data['responses'] as $response_code => $response) {
36             $this->responses[$response_code] = new PathResponse($response_code, $response);
37         }
38     }
39 }
40

```

Рисунок 6. Класс Path.

```

1  <?php
2  declare(strict_types=1);
3
4  class Documentation {
5      public string $swagger;
6      public DocumentationInfo $info;
7      public string $host;
8      public string $base_path;
9      public array $schemes;
10     public array $paths = [];
11     public array $definitions = [];
12
13     public function __construct(array $data) {
14         $this->swagger = $data['swagger'];
15         $this->info = new DocumentationInfo($data['info']);
16         $this->host = $data['host'];
17         $this->base_path = $data['basePath'];
18         $this->schemes = $data['schemes'];
19
20         foreach ($data['paths'] as $path_route => $path_data) {
21             $this->paths[$path_route] = isset($path_data[Path::METHOD_GET])
22                 ? new Path($path_route, Path::METHOD_GET, $path_data[Path::METHOD_GET])
23                 : new Path($path_route, Path::METHOD_POST, $path_data[Path::METHOD_POST]);
24         }
25
26         foreach ($data['definitions'] as $definition_name => $definition_data) {
27             $this->definitions[$definition_name] = new Definition($definition_name, $definition_data);
28         }
29     }
30 }

```

Рисунок 7. Класс Documentation.

## Генерация классов-обертток

Теперь все готово для получения и парсинга json-документации, генерации на ее основе программного кода. Генерация программного кода не отличается от генерации кода html-страниц веб-сайтов. Напишем свой небольшой шаблонизатор. Создадим класс TemplateEngine (рис. 8) с единственным статическим методом render(), который принимает



путь до шаблона в качестве первого аргумента и ассоциативный массив переменных окружения шаблона – в качестве второго. Каждый шаблон представляет собой простой php-скрипт, возвращающий результат в качестве строкового значения. Для соответствия понятию шаблона, в нем недопустим вызов методов-сеттеров, а все логику необходимо выносить из шаблона во вне.

Стандартная функция `ob_start()` переключает вывод из стандартного потока вывода, а `ob_get_clean()` возвращает данные из буфера. Таким образом, для вывода информации из шаблона достаточно вынести ее за область php-кода, либо воспользоваться оператором вывода `echo`.

```
1 <?php
2 declare(strict_types=1);
3
4 namespace App\TemplatesEngine;
5
6 class TemplatesEngine {
7     public static function render(string $template_path, array $data): string {
8         foreach ($data as $key => $value) {
9             $$key = $value;
10        }
11
12        ob_start();
13        require TEMPLATES_DIR . "/" . $template_path . ".php";
14        return ob_get_clean();
15    }
16 }
```

**Рисунок 8. Класс *TemplateEngine*.**

Для корректной работы с RESTful API необходимо описать каждую дефиницию в отдельный класс-обертку и каждый метод API в отдельный метод специального класса. Использование классов-оборок позволяет воспользоваться преимуществами объектно-ориентированного программирования, такими как инкапсуляция, полиморфизм и наследование. Такой подход в дальнейшем позволит разработчику клиента API быстро обновлять клиент под нововведения API, а также в краткие сроки производить наладку системы в случае выхода из строя каких-либо элементов API.

Опишем универсальный шаблон для генерации классов-оборок дефиниций (классов API). Для этого создаем файл `model.php` (рис. 9), который будет выступать в качестве шаблона. В области видимости данного скрипта будет экземпляр класса `Definition`, помещенный в переменную `$definition`.

```

1 <?php
2 echo "<?php\n";
3 ?>
4 declare(strict_types=1);
5 namespace App\Api\Models;
6 class <?php $definition->name_normalized ?> extends Model {
7 <?php foreach ($definition->properties as $property): ?>
8     public <?php $property->getPhpType() ?> $?> $property->getNameInSnakeCase() ?>
9     <?php if (!($property->required): ?> - null<?php endif; ?>;
10
11 <?php endforeach; ?>
12     public static function fromJson(array $data): self
13     {
14         $result = new self;
15         <?php foreach ($definition->properties as $property): ?>
16             <?php $stabs = $property->required ? " " : " "; ?>
17             <?php if (!($property->required): ?>
18                 if (isset($data[<?php $property->name ?>])) {
19                     <?php endif; ?>
20                 <?php if (($property->items != null || ($property->type == Types::ARRAY) && $property->items->reference != null): ?>
21                     <?php $stabs ?> $result-><?php $property->getNameInSnakeCase() ?> = [];
22                     <?php $stabs ?> foreach ($data[<?php $property->name ?>] as $property_data) {
23                         <?php $stabs ?> $result-><?php $property->getNameInSnakeCase() ?>[] = <?php $definition->getFromReference($property->items->reference) ?>::fromJson($property_data);
24                     <?php $stabs ?>
25                 <?php else: ?>
26                     <?php $stabs ?> $result-><?php $property->getNameInSnakeCase() ?> = <?php $definition->getFromReference($property->reference) ?>::fromJson($data[<?php $property->name ?>]);
27                 <?php else: ?>
28                     <?php $stabs ?> $result-><?php $property->getNameInSnakeCase() ?> = $data[<?php $property->name ?>];
29                 <?php endif; ?>
30             <?php endif; ?>
31         <?php if (!($property->required): $stabs = "t"; ?>
32         }
33     }
34 <?php endif; ?>
35 <?php endforeach; ?>
36     return $result;
37 }
38
39 public function getArray(): array
40 {
41     return [
42 <?php foreach ($definition->properties as $property): ?>
43         <?php $stabs = $property->name ?> => $this-><?php $property->getNameInSnakeCase() ?>,
44 <?php endforeach; ?>
45     ];
46 }
47 }

```

Рисунок 9. Шаблон *model.php*.

Здесь все операторы помещены в скобки `<?php` и `>`, а данные для вывода - в `<?=` и `?>`. Подобный подход отличается высокой скоростью генерации результата. Однако можно использовать и готовые решения для шаблонизации, например, шаблонизатор Twig.

Попробуем наше решение в деле. Получим json-документацию, поместим данные оттуда в класс Documentation и сгенерируем класс-обертку для каждой дефиниции. Для выполнения http-запросов используем библиотеку GuzzleHttp.

```

16 $client = new Client();
17 $documentation_parser = new ApiParser($client);
18 $json = $documentation_parser->getJson('v1');
19 $documentation = ApiParser::getDocumentation($json);
20
21 foreach ($documentation->definitions as $definition) {
22     $script_file_path = CLASSES_DIR . "/App/Api/Models/{<?php $definition->name_normalized ?>.php";
23     $script_file = fopen($script_file_path, 'w');
24     $script_content = TemplatesEngine::render('model', [
25         'definition' => $definition,
26     ]);
27
28     fwrite($script_file, $script_content);
29     fclose($script_file);
30     echo $script_file_path, PHP_EOL;
31 }

```

Рисунок 10. Файл *index.php*.

Полученный скрипт необходимо выполнить в интерфейсе командной строки. В результате для каждой описанной дефиниции будет сгенерирован соответствующий php-класс. На рисунке 11 изображен код одного из полученных классов.

```
1 <?php
2
3 declare(strict_types=1);
4
5 namespace App\Api\Models;
6
7 use App\Api\Model;
8
9 /**
10  * Ответы кандидата
11  */
12 class CandidateAnswer extends Model {
13     /**
14      * @var int Идентификатор кандидата<br>
15      */
16     public int $candidate_id;
17     /**
18      * @var int Идентификатор анкетного вопроса кандидата<br>
19      */
20     public int $question_id;
21     /**
22      * @var int Идентификатор ответа<br>
23      */
24     public int $answer_id;
25
26     /**
27      * @var string Текст собственного ответа максимум 500 символов<br>
28      */
29     public string $own_answer_text;
30
31     public static function fromJson(array $data): self
32     {
33         $result = new self;
34         $result->candidate_id = $data['candidateID'];
35         $result->question_id = $data['questionID'];
36         $result->answer_id = $data['answerID'];
37         $result->own_answer_text = $data['ownAnswerText'];
38         return $result;
39     }
}
```

**Рисунок 11. Пример результата.**

### Заключение

Описанный способ генерации программного кода для работы с API подходит не только для Swagger, но и для любой подробно описанной, структурированной документации. Разработчики открытых API облегчат разработку клиентских программ, генерируя таким образом библиотеки на PHP, Python, Java и других языках. Одного запуска генератора достаточно, для обновления прикладной библиотеки до последней версии API. Этот подход увеличит надежность и эффективность взаимодействия серверных и клиентских решений.

### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Джейсон Ленгсторф. PHP и jQuery для профессионалов = Pro PHP and jQuery. – М.: «Вильямс», 2010. – ISBN 978-5-8459-1693-8.
2. Квентин Зервас. Web 2.0: создание приложений на PHP = Practical Web 2.0 Applications with PHP. – М.: «Вильямс», 2009. – ISBN 978-5-8459-1590-0.
3. Кузнецов Максим, Симдянов Игорь. PHP 5/6. – СПб.: «БХВ-Петербург», 2009. – ISBN 978-5-9775-0304-4.

Хаитбаева Гулбахор Икрамовна  
Андижон давлат тиббиёт институти  
Ўзбек тили ва адабиёти  
кафедраси ўқитувчиси  
(Андижон, Ўзбекистон)

## ИНТЕРФАОЛ ТАЪЛИМ АСОСИДА ДАРСЛАРНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ – ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАНБАИ СИФАТИДА

**Аннотация.** Мақолада интерфаол таълимнинг мазмун-моҳияти, ташкил этиш шакллари ва механизмлари ёритиб берилган. Замонавий педагогик технологиялар, таълимни индивидуаллаштириш, ҳамкорлик педагогикаси, талабаларни мустақил таълим олишларини ташкил этиш масалаларининг илмий асослари ўз аксини топган.

**Калит сўзлар:** Интерфаол таълим, пассив таълим, фаол таълим, таълимни индивидуаллаштириш, ҳамкорлик педагогикаси, мустақил таълим, педагогик технология.

### ОРГАНИЗАЦИЯ УРОКОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ КАК ИСТОЧНИК ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ

**Резюме.** В статье описаны сущность, формы и механизмы интерактивного обучения. Нашли отражение современные педагогические технологии, индивидуализация образования, педагогика сотрудничества, рассмотрены вопросы организации самостоятельного образования студентов.

**Ключевые слова:** интерактивное обучение, пассивное обучение, активное обучение, индивидуализация образования, педагогика сотрудничества, самостоятельное образование, педагогические технологии.

### LESSONS ON THE BASIS OF INTERACTIVE EDUCATION ORGANIZING - EFFECTIVE EDUCATION

**Annotation.** The article describes the nature, forms and mechanisms of interactive learning. There are scientific bases of modern pedagogical technologies, individualization of education, pedagogy of cooperation, organization of independent learning of students.

**Key words:** Interactive education, passive education, active learning, individualization of education, collaborative pedagogy, independent learning, pedagogical technology.

“Таълим тўғрисидаги Қонун”и, Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини таълим жараёнига тадбиқ этиш билан таълимда сифат ва самарадорликка эришиш ва шу орқали модернизация қилинган таълим стандартлари тўлиқ бажарилиши таъмин этиш даври бошланди.

Давлатимиз томонидан янги таълим тизимини такомиллаштириш ва бунёдкорлик ишлари жадал суръатлар билан олиб борилмоқда. Узлуксиз таълимнинг барча бўғинлари қулайликларга эга бўлиб бормоқда.

Бошқача қилиб айтганда зерикарли дарслар ўрнига дарсларни ташкил этишга масъулият билан ёндошадиган, касбий билимдон, методик маҳоратга эга, маъсулиятли, замонавий интерфаол педагогик технологияни мукамал ўзлаштириб олган, инновациялар асосида таълимни ташкил эта оладиган ўқитувчиларга талаб ошиб бормоқда. Таълимда моддий база, стандарт, ўқув режалар, дастур ва дарсликлар қанчалик такомиллаштирилмасин, қутилган асосий натижага эришиш, чуқур ва пухта билим бериш, юқори сифатдаги ўзлаштиришга эришиш бевосита назарий ва амалий машғулотларни олиб борувчи ўқитувчининг ижодкорлиги, изланувчанлиги, малакасига, педагогик маҳоратига боғланиб қолаверади, ўқув-билув марказида эса таълим олувчи тармоғини тақозо этади.

Улар қандай таълим талаба шахсига, унинг қизиқиш, ҳоқиқ-истагига, эҳтиёжига мувофиқ эканлигига қаратилмоғи талаб этилади. Энди: “Таълимни индивидуаллаштириш нима?” деган саволга жавоб берайлик:

- таълим жараёнини индивидуаллаштириш шундай ўқитиш усулики, бунда ҳар бир талаба ўқув жараёнида фаол иштирок этиб, ўқув- билув жараёнига шахсий ҳисса қўшиши ҳисобга олинади;

- таълим жараёнини ташкил этишда ўқитувчининг услубий ёндашуви, тезкорлиги, талабанинг шахсий хусусиятлари ҳисобга олинади;

- ўқув-методик, психологик, педагогик ташкилий бошқарув ишларини олиб боришда талаба шахси ўқув-билув марказида бўлади.

1. Гуруҳларда ишланганда, ўқув-тарбиявий ишларни ташкил этганда ҳар бир талаба билан яккама-якка ишланганда уларнинг шахсий хусусиятлари доимо ўқитувчи диққат марказида турмоғи, ҳисобга олинмоғи керак.

2. Талаба билан мулоқот олиб борганда ҳам, унинг ўзига хосликлари диққат эътиборда тутилиши керак.

3. Таълим жараёнида ҳам, унинг қобилияти, имкониятлари назарда тутилиши керак.

4. Педагогик психологик жараёнларни олиб боришда ўқувчининг шахсий ривожланиш даражасини кўзда тутиш зарур [1, 35-б].

индивидуаллашган таълим принциплари:

- Индивидуаллаштириш – ўқув жараёнининг бош стратегиясидир;

- Ўқув жараёнини индивидуаллаштириш орқали шахсни ривожлантириш таъминланади;

- Ҳар бир ўқув предметини ўқитишни индивидуаллаштириш орқали амалга ошириш қутилган натижани кафолатлайди;

- Ўқитиш шакллари индивидуаллаштириш билан интеграциялаш шароити яратилади;

- Индивидуаллашган таълим – ўқув жараёни сифат ва самарадорлигини таъминлайди;

- Индивидуаллашган таълимда кўникма, малака, билим олиш ўқувчининг қизиқиши асосида кечади;

- Мустақил ишлаш олиш ўқувчининг умумўқув кўникмасини ривожлантиради, тараққий эттиради [2, 87-б].

Демак, таълим-тарбия сифати ва самарадорлиги ўқувчининг ўқув мазмунини ўзлаштиришга йўналтирилган мустақил мутолаа билан самарали шуғулланиши, мустақил фикр юритиши ва тафаккур фаолияти билан боғлиқ.

Интерфаол методларда дарс жараёнини олиб боришда ўқувчиларда қуйидаги хусусиятларнинг ривожланишини кўрсатиш мумкин.

Талаба ўқитилмайди, уни мустақил ўқиш, ўрганиш, ишлашга ўргатилади. Бунда ўқувчилар мустақил равишда таҳлил қилиш орқали ўзлаштиришга, ижодий мулоҳаза юритишга, шахсий хулосалар асосида эркин фикр юритишга ўргатилади. Ўқувчиларда ёд фикрларга қарши фикр юрита олиш, ўз позициясини ҳимоя қила олиш кўникмалари шакллантирилади.

Талабага билимлар тайёр ҳолда берилмасдан, билимларни дарсликлардан, интернетдан, турли бошқа манбалардан излаш, топиш, қайта ишлаш орқали унинг билим олиш малакаси шакллантирилади. Олган билимлари орқали ижодий мушоҳада юритиш имконияти яратилади.

Талабани дарсликлар билан ишлаш, ўқиш, ўрганиш, конспект ёзиш, қўшимча адабиётлардан фойдаланиб мустақил ўзлаштириш кўникмаларини эгаллашга ўргатилади.

Мактабда барча ўқувчиларнинг ўз қобилиятлари даражасида албатта ўзлаштиришлари кафолатланади. Бунда ўқувчининг ўзлаштирилган, олган билимларини ҳаётда, амалий фаолиятда фойдалана олиш кўникма ва малакалари билан белгиланади [3, 107-б].

Барча ўқитувчи-талабалар интерфаол методлар асосида ишлашни ўрганиб, уни ўз ўқув-билув фаолиятларига олиб кира олсалар барча ўқувчилар бир хил натижаларга эриша оладилар.

Дарс жараёнини жорий этишда ва унинг структурасидан унумли фойдаланишда ўқувчилар фаолиятини ташкил этиш муҳим роль ўйнайди.

Зероки, жараён марказида ўқувчи шахси туради. Демак, таълим жараёни ўқувчи шахсига қаратилмоғи зарур.

Педагогик жараёнда талабанинг ўқув-билув фаолиятини олиб бориш уч йўналишда амалга оширилади:

1. умумий;
2. гуруҳли;
3. якка тартибда.

1. Умумий йўналишдаги дарс жараёни фаолиятида ўқитувчи раҳбарлигида гуруҳдаги барча ўқувчиларнинг хатти-ҳаракатлари тушунилади.

2. Гуруҳли ўқувни ташкил этишда ўқувчилар фаолияти гуруҳ- гуруҳларга бўлиниб олиб борилади.

3. Якка тартибдаги ўқув жараёнида ўқувчилар яккама-якка фаолият олиб борадилар [4, 132-б].

Умумий шаклдаги фаолиятни ташкил этувчи дарсларда, талабалар бир вақтнинг ўзида бир хилдаги топшириқларни гуруҳ бўйича биргаликда муҳокама этадилар, фикр алмашадилар, солиштирадилар, умумлаштирган ҳолда хулосалар чиқарадилар. Ўқитувчи, талабалар билан биргаликда ва бир вақтда вазифани бажаришда ҳамкорлик қиладилар, ҳам ижодкорликда иш юритиладилар. Ўқитувчи сўзлаш, тушунтириш, кўрсатиш жараёнида барча ўқувчиларни жалб қилган ҳолда масалани бирга муҳокама қилади.

Бундай мулоқотлар талабалар ишончини қозонишга ўқувчилар билан мулоқотга киришишга, жамоа бўлиб ишлаш кўникмасининг ҳосил бўлишига олиб келади.

Умумий ўқув-билув фаолиятини ташкил этишнинг ўзига хос камчилик ва етишмовчиликлари ҳам мавжуд. Дарсда фаолият ўқитувчи томонидан барчага бирдек қаратилади, яъни бир оз абстрактлик юзага келади. Барчани қизиқиш, қобилиятларидан қатъий назар бир хилда, бир мақсад йўлида изланиш, фикрлаш, ишлашга ундайди.

Талабаларнинг ривожланиш даражаси, тайёргарлиги бир хил бўлганлиги туфайли билим ва кўникмаларни қабул қилиб олиш, ўзлаштириш бирдек натижани кафолатламайди. Дарс сифати ва самарадорлиги пасайиши ҳолатлари кузатилади.

Ўқиш, ўзлаштиришлари суст бўлган талабалар секин ишлайдилар. Ўқув материалларини тўла ўзлаштира олмайдилар. Улар кўпроқ ўқитувчининг шахсий эътиборига муҳтожлик сезадилар. Лекин, айрим талабалар мураккаброқ, қийинлик даражаси юқориқроқ бўлган материалларни ўзлаштиришга мойил бўладилар. Айримлари эса, кўпроқ мустақил изланиш, ижодий ёндашув асосида ишлашга қизиқиш билан қарайдилар. Шунинг учун, умумий йўналишли дарсларда савол-жавоблар, лаборатория ишлари, машқлар бажариш, масалалар ечиш иложи борица ўқувчи шахсига йўналтирилган бўлиши мақсадга мувофиқдир.

Дарслар бир хиллик, умумий ёндашув, бир хил қолипдаги таълимий фаолиятдан қочишни тақозо этади ва қуйидаги ишларни амалга ошириш мумкин:

1. Ориентир. Ўйин иштирокчилари ва экспертларни тайёрлаш босқичи. Ўқув жараёнининг иш режаси ўқитувчи томонидан таклиф этилади. Талабалар билан ҳамкорликда машғулотнинг мақсад ва вазифалари аниқланади. Ўқув жараёнини муаммоси шакллантирилади. Ўқув жараёнида кечадиган иммитация, ўйин қоидалари, умумишининг бориши айтилади, ўқувчига ўқув жараёни материали пакети тарқатилади.

2. Ўқув жараёнига боришга тайёргарлик. Ўқув материаллари, вазиятлар, инструкция ва бошқа пакет ҳужжатлари билан танишиш. Ўйин қоидалари таблоси тузилади. Унга ўйин сценарийси, ўйин кетма-кетлиги, олинадиган натижалар акс эттирилади. Ўйин жараёнининг ўзгартириш, унга четдан аралаштириш ман этилади. Фақатгина жараёни олиб боришгина, айрим коррективкаларни киритиш мумкин. Ўйин белгиланганда ўқувчи унга аралашмай, уни кузатиб, бошқариб боради. Унинг асосий вазифаси муҳокамани ташкил этиш, ўйинни кузатиб туриш, натижаларни, олинаётган фикр-мулоҳазаларни ҳисоблаш, иштирокчиларнинг саволларига жавоб бериш.

3. Ўтказилган ўйин муҳокамаси. Ўтказилган ўйин жараёнини таҳлил этиш, муҳокама этиш, баҳолашдан иборат. Ўқитувчи якуний муҳокамани ўтказиши.

Муҳокамада иштирокчи ва экспертлар фикр алмашадилар, ўз позицияларини ҳимоя қиладилар, таассуротларни, пайдо бўлган муаммо ва фикрларни билдирадилар [5, 24-б].

Юқоридаги ахборотлардан маълум бўлдики интерфаол ҳолатда кечган ишчанлик ўйинларида: ўқитувчи – талаба, ўқитувчи – гуруҳ, талаба – гуруҳ,

Талаба-талаба, гуруҳ-гуруҳлар орасида ўзаро мулоқотлар бўлиб ўтиши орқали ўқув мазмуни ўзлаштирилади.

Интерфаол усулда иш юритмоқчи бўлган ўқитувчиларга шуни эслатмоқ мумкинки, янгича ишлаш учун фақатгина мақола, адабиётлар ўқишнинг ўзи камлик қилади. Бунинг учун, яъни ўқитувчи ўз фаолиятида интерфаол методларни қўллаш учун, у шахсан ўзи ишчанлик ўйинлари, ақлий ҳужум, мунозара, дебатларда қатнашиб, ўзи тажрибадан ўтказди, бу ишга шахсий ҳиссасини қўшиб боради.

Бунинг учун у интерфаол дарсларнинг ўтказишнинг куйидаги қоидаларини билиб, ўзлаштириб, амалга киритиши керак:

1. Интерфаол машғулотларга барча иштирокчилар жалб этилиши талаб қилинади. Бунда шундай технологиялар танланиши керакки, иш жараёнида барча иштирокчиларнинг иштироки ёки муҳокамаси таъминлансин;

2. ашғулотга иштирок этишни психологик тайёрлаш зарур. Дарсда иштирок этувчилар жараёнга киришиб кетишга тайёр эмаслигини ҳисобга олмоқ керак. Янги ташкил этилаётган интерфаол дарсларда улардаги хадиксираш, тортинчоқлик, индамаслик ҳолатлари дарснинг фаол қечиши, ички имкониятларни ишга солишга тўсқинлик қилиб кузатилади;

